



QORAQALPOĞISTON RESPUBLIKASI XUDUDIDAGI SUV EKOTIZIMLARI IFLOSLANISHLARI MINTAQAMIZDA EKOLOGIK MUAMMOLARIGA TAVSIF

¹A.J.Turekeeva

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
katta wqituvchisi, pedagogika fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),

²E.K.Joldasbaeva

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti katta wqituvchisi
1-kurs biologiya ta'lim yunalish talabasi.

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p4-164>

ARTICLE INFO

Received: 16th February 2023

Accepted: 26th February 2023

Online: 27th February 2023

KEY WORDS

Suv xójaligi, ichimlik suvlari,
xójalikdagi ishlatiladigan
suvning ifloslanishi, suvning
radioakiv ifloslanishi.

ABSTRACT

*Ushbu maqolada suv-ekologik muammolari va ularning
kelib chiqish sabablarini órganish, xójalikda ishlatiladigan
va ichiladigan suv manbalarining ifloslanishi,
sugóriladigan dehqonchilikning suv-ekologik
muammolarini hal qilish borasida olib boriladigan amaliy
ishlar, aholini toza suv bilan taminlash býicha chora
tadbirlar haqida ma'lumot keltirilgan.*

Janubiy tuman suv xójalik kompleksi tarixini va uning tuzilishini kórsatish va ularni
taxlil qilish - suv ekologik muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash va ularning
echimini topish imkoniyatini beradi.

Mavjud suv-ekologik muammolarni ularning kelib chiqish sabablariga kóra uch guruhgá
bólish mumkin.

1-guruuh sugóriladigan dehqonchilikni rivojlantirish bilan boǵlıq suv-ekologik
muammolarga kiradi. Bu muammolar dehqonchilik ekstensiv rivojlanishi natijasida paydo
bólgan:

1. Ichiladigan suv manbalarining ifloslanishi.
2. Kóp miqdorda yiǵılıb qoladigan kollektor-zovur suvlaridan (KZS) foydalanish.
3. Sahro va tabiiy yaylovlarning ishdan chiqishi.

Xójalikda ishlatiladigan va ichiladigan suv manbalarini ifoslantirish muammosini hal
etish sugóriladigan dehqonchilikda suvdan oqilona foydalanish bilan boǵlıq ichiladigan suv
manbalarini órganish ularning ifloslanish sabablarini aniqlash imkoniyatini berdi:
sugóriladigan erlarda kimiyoviy moddalarni (pestitsidlar, mádanli óítlar va boshqalar)
yuqori normada ishlatildi. Bu preparatlarning tuproqda, havoda, suvda kóchib yurishi va
tarqalish qonuniyati hanuzgacha yaxshi órganilmagan. Tadqiqotchilar málumotlariga kóra 20
% azotli, 15 % fosfatli óít er osti suvlariga qóshilib ketadi.

Kollektor-zovur tarmoqlarining uzunligi va ularning suv ótkazuvchanligi kórsatadiki,
kollektor-zovur suvleri har gektariga 1500-2500 kub metr bólishi mumkin, agar gektariga
2000-2500 kub metrga kótarilib ketsa demak sugórish suvlaridan samarali foydalanilmagan.
Kollektor-zovur suvlarining er usti suvleri bilan qóshib sugórishda ishlatilishi mumkin.

Kollektor-zovur suvlarining yana 20% foydalanishdan oldin meliorativ tadbirlar
ótkazishni taqozo qiladi (shór yuvish, zovurlar tarmoǵını kengaytirish va hakozo). Shu sababli



kollektor-zovur suvlardan foydalanishdan oldin quyidagi asosiy tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- kollektor-zovur suvlarning (órtacha darajada shórlangan, 5-7 g/l).
- kollektor-zovur suvlaridan 60 % ini hosil bólgan joyda sugóriishga ishlatish.

Sahro va tabiiy yaylovlarning ishdan chiqishi - sugóriladigan dehqonchilikning rivojlanish jarayoni bilan boǵlıq. Bugungi kunda 400 ming getkar sahro yaylovlaridan 70 % ózining tabiiy unumdorligini yoqotdi va ular qishloq xójalik ishlab chiqarishi uchun yaroqsiz ahvolga tushib qoldi. Yaylovlarning tabiiy siǵimi (qoramollarni saqlab turish imkoniyati) qisqardi. Bundan faqat voha xalq xójaligi, shu jumladan, chorvachilik zarar kórdi, keyingi 20 yil ichida qoylarning soni 45 % kamayib ketdi. Ishdan chiqqan yaylovlar yangidan ózlashtirilgan erlarga yaqin joylashgan, shu sababli meliorativ holati buzilmoqda. Bu muammoning asosiy sabablari quyidagilar:

- yaylovlardan notoǵri foydalanilgan, dehqonchilikni yuritish va erni tiklash ishlari ilmiy asoslanmagan;
- yaylovlarni sugóriladigan maydon sifatida ózlashtirish, ularning meliorativ holatining emonlashuvi;
- sugóriladigan erlardan chiqqan kollektor-zovur suvlarini yaylovлага oqizib, suv bostirish;

2 - guruh. Sugóriladigan dehqonchilikning suv ekologik muammoları.

Bunga quyidagi muammolar kiradi:

- sugóriladigan erlearning sifati va melioativ holatining emonlashuvi;
- oshirilgan normada sugóriish, shór yuvish, suv resurslaridan notoǵri foydalanish va sugóriishda kóp suv sarflash;
- bir joyda surunkali paxta etishtiraverish, ilmiy asoslangan almashib ekishga rioya qilmaslik, oshirilgan normada sugóriish;
- agrokimelardan foydalanish natijasida tuproqdagi mikroorganizmlar qirilib ketdi, málumki mikroorganizmlar tuproq tabiiy hosildorligini tiklanishini táminlaydi.

3-guruh. Suv - tuproq resurslaridan foydalanish holati tahlil qilingandan keyin málum bólди, suv isrofgarchiligi yuqori, uning foydalilik koeffitsienti past, er osti suvlarining buǵlanish darajasi yuqori.

Katta maydonlar órtacha va yuqori darajada shórlangan. Natijada paxta, gálla va boshqa ekinlar hosildorligi kamaydi.

Hozirgi vaqtida elimizda toza suvgaga bólgan talab borgan sayin kuchaymoqda. Sababi xalq xójaligida foydalangan suvlar ózining sifatini yoqotadi. Ularni qaytadan foydalanishga bólmaydi. Shuningdek suv tanqisligining oldin olish masalasi bilan dunyo yuzining kóplagan olimlari shuǵullanmoqda. Sababi, bu muammo kópchilik ellarda orin olgan. Biroq uni echishning asosiy usuli suvni unumli foydalanish bólib topiladi. Chunki ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishiga chuchuk suv manbalarining tásiri kuchli.

Shunga boǵlanishli bir qator ellarda dengiz suvini texnologik uskunalar yordamida tozalab foydalanadi. Sababi, u uncha qimmatga tushmaydi. Shuningdek, qishloq xójaligida foydalanadigan chuchuk suvlarni unumlash va ularni muhofaza qilish katta ahamiyatga ega. Shuning uchun bu tarmoqda sóngi yillari ekinlarni tegishli uskunalar yordamida, suvlarni burkish, aerozol' va tomizish usullari paydo bόldi. Paxtaning suvni haddan tashqari oz talab etadigan navlari topildi. Hozir paxtaning bu navi Taxtakópir tumanining xójaliklarida sinab



kórilmoqda. U daqillarni burkish va tomizish usullariga keladigan bolsak, ular suvning sugorish normasini 3-6 marotaba unumlashga mumkinchilik beradi. Shuningdek sanoat tarmoqlarida foydalangan suvlarni bir necha bosqichli suv tozalagichlardan ötkarib tozalab, ularni qaytadan foydalanish usullari topildi. Hozir kópchilik sanoat korxonalari suvdan shunday ýol bilan foydalanadi. Bular suvning belgili darajada isrof qilmaslikka va uning ifloslanishing keskin kamayishiga olib kelmoqda.

Sanoatda 67 % suv hamisha ishlab chiqarish aylanishda bóladi. Ayniqsa kópchilik qora metallurgiya sanoatida suv shunday usulda foydalaniladi. 1981 yili sanoatda suvni birinchi marta foydalanish ýoli bilan 40 km³ toza suv isrof qilindi. Bundan tashqari kópchilik sanoat tarmoqlari suvni kompleksli tozalash, ýani uni mexanikalik, kimiyoviy va biologik ýol bilan tozalansa ham bari bir u biologik ýol bilan tozalash vaqtida oqar suvdagi organikalik moddalarni foydalanadigan mikroorganizmlarga sanitariya tomonidan qulayli sharoitlar paydo bóladi.

Íchki suv tarmoqlaridagi (ariq va kanallar) oqar suvlardan foydalanganda suvning 20-25, ayrim kanallarda esa hattoki uning 40 % ga yaqini isrof bóladi. Sababi, ularning kópchiligi betonlanmagan, ayrimlari esa suvni saqlab turish layoqatligiga ega emas, tuproq va qumlar orqali qazilgan. Bunday kanallarning qatoriga Turkmanistondagi «Qoraqum» kanali kiradi. Chunki, u Qoraqum orqali qazilgan. Shunday kanallar bizning Respublikamizda ham ýoq emas. Shuning uchun suv resurslarini foydalanish maqsadida ichki suv tarmoqlarini betonlash va ularni suvni saqlab turish layoqatligiga ega tuprogi bor hududlardan qazib ötkazish katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari suvni foydalanish uchun erni yaxshilab tekislab, uni injenerlik sistemaga olib kelish kerak. Shuningdek qishloq xójalik ekinlarini normadan tashqari bostirib sugorishni man qilish talab etiladi va arning shórlanish darajasiga qarab, chuchuk suvlarga kollektor-drenaj suvlarini aralashtirib, sugorishni tajribaga amalga oshirish suvni foydalanishning manbayi bólub topiladi. Shuning bilan suvni kóp talab etadigan ekinlarni suvni oz talab etadigan ekinlarga almashtirish zarur. Masalan sholini bugdoyga almashtirishga bóladi. Biroq bugdoydan sholidan olinadigan hosildan kam hosil olishga bólmaydi. Sababi u iqtisodiy tomonidan foydali emas.

Suv resurslarini ifloslanishdan saqlashning asosiy ilojarining biri ularga mol chorvachiligidida chiqindilarni tushirmslik bólub topiladi. Sababi, 108 ming bosh chóchqa boqiladigan kompleksning ekiy 35 ming bosh moli bor fermerning suvni ifloslash darjasasi 400-500 ming odam yashaydigan katta shaharning chiqindilaridan ortiqroq bóladi. Shuning uchun suvni ifloslanishdan saqlash har birimizning muhim vazifamiz bólishi kerak.

Ínson ózining faoliyati natijasida tabiiy fiziologiya talablarini qanoatlantirish uchungina suvni talab etmaydi. Suv katta masshtablarda sanoat va qishloq xójaligida qóllaniladi.

Suv yirik masshtablarda katta sarf etiladi. Masalan, 3 mln. xalqi bor shahar uchun suvning órtacha sarflanishi sutkasiga 2 mln kub metrni tashkil qiladi.

Suv ob`ektlariga xizmat kórsatish, sanoatning ifloslangan oqar suvlari, suv toshqini vaqtida, dalalardan yuvib olingan kimiyoviy zaharlagichlar va ógitlar, ifloslangan atmosfera egin-sochinlar kelib tushadi. Bunday ifloslanishlar daryo oqimi va tsirkulyatsiya jaraenlar sababidan katta kengliklarga tarqaladi va yuzlagan, hatto minglagan km ga ótadi.

Hozirgi zamon sanoat texnologiyalarining kópchiligining ayirmachiligining biri suv ob`ektlarida metallarning aktiv sochilishi hisoblanadi. Kimiyoviy elementlarning 30 dan ortiq



okeanlarning flora va faunasi uchun xavfli. Ayniqsa, bu dengiz organizmlari tóqimalarida yiğiladigan ótuvchi va oǵır metallarning birikmalariga tegishli.

Boshqada organikaliq ifloslanishlar bólíb fenollar, ularning galogenli birikmalari hisoblanadi, ular suv ob`ektlariga kley, plastmassa, koks ishlab chiqarish býicha korxonalarining chiqindilari bilan tushadi. Har xil kimiyo texnologiyalarda keng qóllaniladigan organikalik birikmalar juda xavfli.

Keyingi 50 yil ichida organikalik yuqori aktiv moddalarning ekiy detergentlarning katta guruhi paydo bóladi, ular sanoatda ham xizmat kórsatish tarmoqlarida yonuvchi kukunlar sifatida keng qóllaniladi.

Suv ob`ektlarining ekologiya sharoitining pasayishiga anorganik moddalar bilan ifloslanish imkoniyat beradi. Birinchi navbatda, u suvgaga xlорidlar, mineral ógitlar, kislodorlar va oǵır metallar birikmalarining tushishishiga boglıq.

Yanada suv ob`ektlarining antropogenli ifloslanishiga kislotali chiqindilarning tásiriga ahamiyat berish kerak. Ular suvgaga ayirim ishlab chiqarish oqinlar, yanada kislotali eiginsochinlar natijasida kelib tushadi.

Respublikamizda ham suvning asosiy manbayi bólgan Amudaryo sóngi yillari biroz ifloslanmoqda. Sababi, Amudaryodagi suvning miqdorini kópaytish maqsadidagina kollektor-drenaj suvlarining kópchilik bólagi tashlandi. Masalan, SANIİRİ ning málumotiga qaraganda har yili 7,5-8 kum km kollektor-drenaj suvleri Amudaryoga oqiziladi. Shunga boglıq u hozir Tojikiston, Ózbekiston, Turkmaniston respublikalarining tabiiy zovurlari óxshaydi. Sababi, Amudaryoga tashlanib turgan kollektor-drenaj suvlarining uzunligi 5 g/l ga etdi. Ular unga faqat tuz olib kelib qóymasdan dalalardan chiqqan gerbitsid va pestitsidlarni ham olib keladi.

Tabiatda suvlarning ifloslanishi har xil bóladi. U minerallar bilan, organikalik, biologik isitish bilan, radioaktivlik va qattiq tashlandi bilan ifloslanadi. Dengizlarning, daryolarning, kóllarning, soylarning ham anhorlarning paydo bólish vaqtida, shuningdek tuproqning ustingi qatlamlari suv eroziyasiga uchrasa suvlar mineral moddalar bilan ifloslanishga uchraydi. Bunday jarayonlar kóllarga, daryolarga va boshqa suv ob`ektlariga har turli loy, qum va tuzlarni, kislotalarni, ishqorlarni olib keladi. Ular suvni ifloslaydi.

Suvning organikalik moddalar bilan ifloslanishi, unga neft` unumlarining, organik birikmalarining, har xil ósimlik va hayvonlarning qoldiqlarining tushishi natijasida paydo bóladi. Neft` va gaz sanoatlari, terini qayta ishlash zavodlarining chiqindilari, qogoztsellyuloza, sut-gósht unumlarini ishlab chiqaruvchi kombinatlar, engil sanoat, qurilish va barcha turdagи transport korxonalari ósimlik va hayvonot qoldiqlari, suvning organikalik moddalar bilan ifloslanishining manbayi bólib topiladi.

Suvning *biologiyalik* ifloslanishi bakteriyalarning, viruslarning, zamburuǵlarning, shuningdek kóllarning yashil suv ótlari va boshqada yuqori darajadagi ósimliklar bilan tólib ketishi natijasida paydo bóladi. Bu biologiyalik ifloslanishga har kungi xójalik tashlandi suvleri va mol chorvachilik komplekslarining chiqindilari ham qatnashadi.

Suvning *issiqlik yóli* bilan ifloslanishi suvlarni sovitgich sifatida foydalanishning natijasida yuzaga keladi. Sababi, temperaturaning kótarilishi bilan suvdagi kislodor kamayadi. Bu suvda anaerob bakteriyalarining kópayishiga, oltingugurt vodorodlarining ajralib chiqishiga metan va boshqada zaharli moddalarning, tirik organizmlarni zaharovchi



birikmalarning kópayishiga olib keladi. Suvning bunday ifloslanishi, uning biologiyalik yól bilan ifloslanishini kuchaytadi.

Suvning *radioaktivlik* ifloslanishi - termoyadroviy qurollarni sinab kórish, korxonalarining radioaktiv chiqindilarni kóplab chiqarish va atom elektrostantsiyalarida daryo suvlarini, reaktorlarni sovitgich sifatida foydalanish natijasida bóladi.

Qattiq qoldiqlar bilan suvning ifloslanishi - bu har xil korxonalarining ish-harakatlaridan kelib chiqadi. Bu sharoitda oddiy hayvonlar va mikroblar kóplagan qoldiqlarni ovqatlanishga foydalanadi. U qayta ishlab chiqarish jarayonlarini paydo etadi.

Suvning ifloslanishining yana bir sababi bostirib sugóriishdir. Bu sugóriladigan maydonlarda fil'tratsiya hodisani kuchaytirib yuboradi. Bir gektar maydondagi suv fil'tratsiya orqali 5-7 gektar maydondagi er osti suvlariga tásir qiladi. Sugóriish maydonlarining xójalikda foydalanadigan va ichiladigan manbalarga yaqin joylashuvi xójalik ichimlik suvlarini ham ifloslantirishga olib keladi. Kollektor-zovur suvlari foydalanish dehqonchilik rivojlanishi bilan boqliq suv-ekologik muammolarning biri hisoblanadi.

Bundan tashqari shisha, yoǵoch, rezina va boshqada tashlandilar suvda tez tarqalmay dastlabki shaklida qoladi. Quruvchilar qurilish qoldiqlarini kópincha kóllarga va daryolarga tashlaydi.

Odamlar asrlar bóyi foydalangan narsalarining qoldiqlarini suvga tashlab kelgan. U suvning ózini-ózi biologik yól bilan tozalanishiga boǵlanishli uncha sezilmagan. Biroq keyingi yillari suvga tashlanadigan chiqindilarning kimiyoviy tarkibining har xilligi va ularning miqdorining kópayishi suvning ózini-ózi tozalashini qiyinlashtirmoqda. Bular xalq xójaligiga katta zarar tekkizmoqda.

Hozir yurtimizda va butun dunyoda daryo suvlarining ifloslanishi sanoat yangigina rivojlangan davrga solishtirganda 1000 marotaba ortiq. Sababi, bir kimiyoviy kombinatining ózi sutkasiga 20 t fenol 50 t uksus kislotasi, 100 t glitserin, 100 t osh tuzi va minglagan tonna xlorli birikmalarini daryo suviga oqizib yuboradi. U yiliga faqatgina glitserinning ózidan 10000 manatdan ortiq zarar kóradi.

Íssiqlik beruvchi elektr stantsiyalari va boshqada shunga óxshagan korxonalar ózlaridan chiqqan issiq suvlarni daryo va kóllarga oqizib yuboradi. Bu ulardagi tirikchilik jarayonlarini buzadi. Shuningdek, ichki suvlar kir suvlari bilan belgili darajada ifloslanadi. Asosan sóngi vaqtida kir yuvishga foydalananayotgan yasalma yuvuvchi moddalar suvda yashovchi organizmlarga zaxarli tásir etadi. Bundan tashqari qishloq xójaligidagi ichki suvlar mineral óítlar bilan qishloq xójalik zararkunandalariga ham yovvoyi ótlariga qarshi qóllanadigan ximikatlar bilan ifloslansa, tógayli erlardagi daryolar salgina iqizish natijasida ifloslanadi. Sababi, yoǵochlarning qobiqlari, shoxalari daryo tubiga chókadi va shu erda chiriydi. Bu baliqlarning tirikchiliginı qiyinlashtiradi.

Mana shunday ýollar bilan mineral óítlarning qoldiqlari va dalalardan yuvilib chiqqan pestitsidlar ichki ariqlarga, kanallarga, daryo va kóllarga, suv saqlagichlarga tushmoqda. Bu ularda evtrofika jarayon paydo etib, suvda kislorodning etishmasligiga olib keladi, natijada, ulardagi baliqlar qirilmoqda.

Respublikamizda inson salomatligining past bólishining asosiy sabablaridan biri bu atrof-muhitning buzilishi hisoblanadi. Shuning asosida hozirgi tibbiyotda ekologiyadan kelib chiqqan kasalliklarning 80%ni atrof muhitning buzilishidan har xil qiyinchiliklarni paydo qildi.



Shu bilan birga aholining salomatligiga fan texnika taraqqietining rivojlanishi bilan ekologik tásiri yana ham kuchaymoqda (Agadjanyan N.A. «Ekologiya cheloveka problemi Arala i zedorov`e naseleniya» 1991)

Antropogen tásirning salbiy omillari ekosistema uchun qulaysiz bólíb qolmasdan, individual va populyatsiyalik daraja ham salomatlik rezervlarining pasayishiga, spetsifik patologianing va yangi ekologik kasallikkarning ósishiga, bir qancha regionlarda esa depopulyatsiyaning paydo bólishiga olib keladi.

Ínsonning tásirida bólgan muhit uning organizmlarida hozirgi vaqtida ózining salbiy tásirini ýáni kasalliklar va ólimchilik strukturasining ózgarishiga, aholining boshqa regionlarga migratsiyalanishga yashash yoshining pasayishiga salbiy tásir tekkizmoqda.

Biosferaga bólgan inson tásirining ósishi, aholining salomatligini saqlash bilan birga tabiiy muhitni va insoniyatning yashash sharoitini ham paydo qilishimiz zarur. Hozirgi vaqtida orol muommosi planetamizdag'i eng dolzarb muommolarning biri bólíb qolmoqda. Kóp asrlik ekosistemaning buzilishi bilan birga, yuqori sifatli ajoyib tabiiy komplekslarning yoq bólíb ketishi kuzatilmoque. Hozirgi paytda Orol bývida insonning yashashi uchun noqulay ekstremal sharoit paydo bólgan.

Orolbóyi ekstremal holatining asosiy sabablaridan biri suv sifatining pastligi bólmoqda. Amudaryo Respublikamizning eng asosiy suv bilan táminlovchi arteriyasi hisoblanib, xududda tirikchilikni táminlovchi yagona daryodir. Respublikamizdag'i har xil kasalliklar kópayishining asosiy sabablaridan biri bu insonlarning sifatli ichimlik suvlari bilan táminlanmaganligi, kanalizatsiya va elatli punktlarning sanitariya tozalikkarning etishmaslidir.

Vodoprovod va suvda tozalovchi uskunalarining ishga tushishga qaramasdan, hozirgi paytgacha aholini sifatli suv bilan táminlash kunning asosiy dolzarb muommosi bólíb kelmoqda. 2000 yili suvning probalari tekshirilganda sanitariyalik talabga kimyoviy kórsatgich 94,0%ga bakteriyalogik kórsatgich 33,0%ga javob bermaydi.

Qoraqalpoǵiston Respublikasida 1999 yilgi málumot, býicha ózining tashlandiqlari bilan atrof muhitni ifloslovchi 79 ob`ekt hisobga olindi. Shundan 31 ob`ekt atmosferani, 39 ob`ekt suv omborlari va tuproqni, qolgan 9 kollektor suvi Amudaryoga óz suvlarini quymoqda. Shundan 21tasidagina tozalovchi soorujeniyalar ishga tushgan.

Sungi yillari Respublikamiz aholisi salomatligining asosiy kórsatgichlari tez suratlar bilan pasayishi kuzatilmoque. Markaziy Osiyo onalari ólimi eng yuqori kursatgichni tashkil etmoqda perinatal va bolalar ólimi ham yuqori bólíb qolmoqda.

Aholi orasida umuman ólimchilik hozirgi paytda yuqori. Bolalar orasida har xil kasallikkarning kópayishi olimlarni chuqur óylantirib qoymoqda. Ayniqsa qon va qon sistemalari kasallikkleri sungi 10 yillikda (1990-2000) 14 hissaga, buyrak kasallikkleri sungi 10 yillikda (1990-2000y) 30 hissaga ósdi. Regiondag'i xomilador ayollarning 90% anemiya kasalligi bilan kasallangan katta yoshdagi insonlar orasida allergik kasallikklar 3 hissaga ósdi.

Atrof muhitning ifloslanishi bilan paydo buluvchi kasallikkarning kópayishi yuqori darajada, bólíb buning tarkibida ayniqsa saraton kasallikkarning 1/3 qismini óz ichiga oladi. Bu kasallik Respublikamizning shimoliy rayonlarida kóp uchraydi.

Suvning, tuproqning, oziq-ovqat mahsulotlarining ifloslanishi bilan paydo bólgan bir qancha kasallikklar guruhlarining kópayishi noqulay holatlarga olib kelmoqda. Yildan-yilga anemiya kasalligi, suv bilan tuzning almashishlari kópaymoqda. 1990-2000 yillar oraliǵida ót-



tosh kasalliklari 7hissaga surunkali gastrit 3 hissaga, buyrak kasalliklari 9 hissaga, artrozorrit 3,7 hissaga kópaydi.

Aholi salomatligining pasayishiga tógrí ovqatlanmaslik ham óz tásirini tekkizada. Masalan, Ózbekiston Respublikasi normativdan 2 hissa past gósht mahsulotlarini foydalangan bólsa, Qoraqalpoǵiston aholisida esa bu kórsatgich 4 hissaga etdi.

Klinik va eksperimental Fan tadqiqot institutining bergen málumotlariga qaraganda Qoraqalpoǵiston aholisining katta qismida (aholining 50%dan ortígida) hujayra immunitetlarining tanqisligi va organizmda S va A vitaminlarining etishmasligi kórsatilgan. İmunli tanqisligining asosiy sabablaridan biri-bu atrof-muhitning va oziq-ovqat mahsulotlarining pestitsidlar bilan ifloslanishidan kelib chiqmoqda. Shuning uchun aholini toza ichimlik suvi va yangi oziq-ovqat mahsulotlari bilan táminlash regiondagi bugungi kunning asosiy vazifasi hisoblanadi. (Ch.Abdirov, Mediko- ekologicheskie problemy pri Aral`ya i zdorovi naseleñiya Nukus 1993)

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, atrof-muhitning ózgarganligi insonning biologik holatidan yuqori bólíb ketgan. Bunga isbot sifatida fan tadqiqot institutining klinik va ekspreminal tibbiyot xodimlari janubiy Orol bóyi xotin-qizlari temir defitsitli anemiya bilan kasallangan deb kórsatadi.

Xotin-qizlar orasida (15-49 yosh) anemiya kasalligi býicha (vitamin temir blokdiftsiti) kasallanib, tuqqan ayollarning farzandlari orasida markaziy asab sistemasining perinetal kasallanishi kuchaygan.

Ínson salomatligi atrof-muhit bilan chambarchas bogliqdir. Shu órinda xalqimizning ijtimoiy- madaniy holati, uning sanitarki va tibbiy ongingin past darajada ekanligini aytib ótishimiz zarur. Yaxshi yashashni paydo qilishda birinchi navbatda sanitarki ozodaligimizni va tibbiy bilimimizni yaxshilashimiz lozim.

Bizning oldimizga yangi paydo bólgan kasalliklarni, onalar va bolalar salomatligini saqlash, nasllik va xududda eng kóp tarqalgan infektsion patalogiyani, atrof-muhitning gigienasini, tógrí ovqatlanishni támin etuvchi ishlar asos qilib qóyilgan.

Bugungi kunning dolzarb muommolarining yana biri antropogen tásirning natijasida paydo bólgan kontserogenli mahsulotlarning ifloslanishi xarakterli, darajasini va qonuniyatlarini órganish hisoblanadi. (Ch. Abdirov, 1993)

Ekologik ofatchilik regioni sifatida orol býida yana bita ilmiy tadqiqot blogini ýáni aholining salomatligi býicha tibbiy ekologik monitoring tuzishimiz zarur. Hammamizga málum atrof-muhitning omillari inson organizmiga kuchli tásir qiladi, biroq organizm funksional rezervlarning mobilizatsiyalanish mexanizmi bilan táminlangan. Bu rezervlar kamayganda, har xil kasalliklar paydo, bóla boshlaydi. Shuning uchun aholi salomatligi holatining chegaraviy kriteriyasini belgilash bugungi kunning muommosi hisoblanadi. Respublikamiz aholisi yashash sharoitining pastligiga tásiri anemiya, har xil diareyli holatlar sil kasalligi tarqalishi , saraton va boshqa surunkali kasalliklar, onalar va bolalar ólimining yuqori kórsatgichi , yashash yoshining pastligi, sabab bólíb qolmasdan yana depressiyaning ósishi, nevroz va psixik kasalliklarning tásiri ham katta. Ínson ekologiyasi atrof-muhitning inson organizmda tásiri kriteriyalarni va har xil metodlarni talab qiladi. Bu erda funksional holatning ózgarishiga, kasalliklarning klinikasidan oldingi stadiyalariga e`tibor qaratishimiz kerak. Ekologik holatning past ekanligiga qaramasdan aholi orasida haligacha sanitariyalik va



ekologik madaniyatning pastligi sezilarli darajada. Bir qancha erlarda ózining yashayotgan xududida ekstremal noqulay holatlarni paydo qilgan. Chiqindilar har xil axlatlar tógrí kóchaga tashlanib, har xil bakteriyalarini va kasallik keltiruvchi mikroblarning kópayishiga yól qoymoqda. Kópgina elatli punktlarda yashash sharoitlari noqulay, gigenalik holati juda past.

İ.M.Baevskiy tarafidan ishlangan tibbiy ekologik monitoringi janubiy Orol bwyidagi ekstremal holatda foydalanganimizda óz tásirini kórsatar edi.

Aholi salomatligining ózgarishini oldindan bilganimizda , tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini rejalashtirishimiz, xududda ekologik vaziatni yaxshilashga, bu erda yashovchi aholi orasida kasalliklarni tóxtatuvchi effektli tadbirlarni ishlab chiqishda óz tásirini kórsatar edi.

References:

1. Ch.Abdirov va boshqalar. Ekologiya i zedorov`e cheloveka. Qaraqalpaqstan baspasi Nukus 1993 y.
2. Ch.Abdirov va boshqalar. Mediko – ekologicheskaya situatsiya v respublike Karakalpakstan i prognoz za bolevaemosti naselaniya. Qaraqalpaqstan baspasi Nukus –1996.
3. Ataniyazova va boshqalar. Aralskiy krizis mediko – sotsialnie problemi Karakalpakstana. Nukus 2001-yil.
4. İ.Baevskiy. Mediko-ekologicheskiy monitoring zedorov`ya naseleniya G` stat`yasi 65-bet. Nukus 2001-yil.
5. T.Eshchanov, N.Bisaliev. Salamat awlad ushin. Poligrafist bosmasi Nukus 1995 yil.
6. T.B.Eshchanov va boshqalar Zabolevaemost` zlakakachestvennimi novoobrazovaniyami v respublike Karakalpakstana.
7. B.Jolibekov va boshqalar Tyajelie metalli v atmosfernoy pili i pochvax Yujnogo Priaral`ya. Ilmiy Amaliy konferentsiya. Toshkent davlat universiteti 1997-yil.
8. O.İsmailov va boshqalar. Razvitiye zdravooxraneniya v respublike Karakalpakstan. Bilim bosmasi Nukus 1997-yil.
9. S.Qobulov Klimaticheskiy effekt usinaniya Aralskogo morya, Vestnik KKOANRUz, 1997.
10. L.G.Konstantinova va boshqalar. Korrelyativnaya svyaz` mejdu parametrami okrujajushey sredi i zedorov`em naselenie Karakalpakstana. Nukus1993-yil
11. L.G.Konstantina va boshqalar Kkachestvo pit`evoy vodi, costoyanie zedorov`ya naseleniya. Toshkent FAN. 2001-yil.
12. A.B.Kurbanov va boshqalar Giginicheskaya otsenka pestitsidov. Bilim. Nukus 2002-yil.
13. E.Qurbanov. Problemi Arala i priaral`ya. Toshkent Fan 2001-yil. S. 34-42
14. K.P.Primbetov. Zavisimost` zabolevamosti v Respublike Karakalpakstan. Qaraqalpaqstan baspasi Nukus 1993-yil.
15. V.A.Popov. Rol migrantsiy soley landshaftogeneza Priaral`ya, 1999-yil.
16. A.A.Rafiqov. Geoekologik muammolar, Toshkent Wqituvchi 1997-yil.
17. R.R.Reymov. Ekologicheskaya ostanovka uxudshaetsya. Vestnik KKOANRUz 2001-yil.